

**QUROLLI KUCHLAR XIZMATCHILARINING JANGOVORLIK
RUHINI KO'TARISHDA PEDAGOGIK-PSIXALOGIK OMILLARI**

Xamraev Umidjon Muzaffar o'g'li

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat

Pedagogika universiteti Harbiy ta'lim fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya

Psixologik bilimlarni o'zlashtirish xizmat va o'quv faoliyatida yordam beradi, ya'ni yaxshiroq tushunish, esda olib qolish, diqqat, fikrlash faoliyatining shart-sharoitlarini ochib ko'rsatadi. Odamning ruhiy hayotini aks ettiruvchi adabiyot, til, tarix va boshqa ijtimoiy fanlarni o'rganishda psixologiyani ahamiyati kattadir. Harbiy psixologiya ma'lumotlaridan harbiy pedagogika fanida keng foydalaniladi. Harbiy xizmatchilarning ruhiy xususiyatlarini bilmasdan turib, ularni o'qitish va tarbiyalash ishlarini yaxshi yo'lga qo'yib bo'lmaydi. Qisqacha qilib aytganda harbiy psixologiyani maqsadi harbiy xizmatchilar mehnatini yengillashtirish va takomillashtirishdir.

Kalit so'zlar: harbiy psixologiya, pedagogika, jangovorlik ruhi, harbiy xizmatchi, inson ruhiyati.

Аннотация

Приобретение психологических знаний помогает в служебной и учебной деятельности, то есть выявляет условия для лучшего понимания, памяти, внимания, мышления. Литература, язык, история и т. д., отражающие духовную жизнь человека. значение психологии в изучении общественных наук велико. Знания военной психологии широко используются в военной педагогике. Не зная психических особенностей военнослужащих, невозможно их должным образом обучить и воспитать. Одним словом, цель военной психологии - облегчить и улучшить работу военнослужащих.

Ключевые слова: военная психология, педагогика, боевой дух, военнослужащий, психика человека.

Annotation

The acquisition of psychological knowledge helps in service and educational activities, that is, reveals the conditions for better understanding, memory, attention, thinking. Literature, language, history, etc., reflecting the spiritual life of man. the importance of psychology in the study of the social sciences is great. The knowledge of military psychology is widely used in military pedagogy. Without knowing the mental characteristics of servicemen, it is impossible to properly train and educate them. In short, the goal of military psychology is to facilitate and improve the work of military personnel.

Keywords: military psychology, pedagogy, fighting spirit, serviceman, human psyche.

Fan sifatida psixologiyani, jumladan harbiy psixologiyani vazifasi inson ruhiy hayotining asosiy qonuniyatlarini o'rganishdan iboratdir. Har bir ofitser bu qonuniyatlarni bilishi zarur. Harbiy psixologiyani o'rganish harbiy xizmatchining o'zidan boshqa kishilarni tushunishiga, ularning ruhiy xolatlarini xisobga olgan holda ish ko'rishiga, odamlarning ijobiy, salbiy xususiyatlarini, ularning o'zlariga xos bo'lgan individual jihatlarining qay yo'sinda va nima sababdan yuzaga kelishini ko'ra olishiga, tevarak-atrofini qurshab olgan boshqa odamlar bilan aloqa o'rnatishiga yordam beradi. Bu fanni jiddiy o'rganishga kirishgan har bir kishi o'zining ham kuchli, ham zaif tomonlarini ko'ra oladi, o'z ustida ishlash imkoniyatlariga ega bo'ladi, o'zining ijobiy sifatlarini yanada yaxshilashga, nuqsonlarini esa yo'qota olishga o'rganadi. Psixologik bilimlarni o'zlashtirish xizmat va o'quv faoliyatida yordam beradi, ya'ni yaxshiroq tushunish, esda olib qolish, diqqat, fikrlash faoliyatining shart-sharoitlarini ochib ko'rsatadi. Harbiy faoliyat, ayniqsa, ofitserlik faoliyati murakkab va qiyin faoliyatlardan biri hisoblanadi. Buning sababi ushbu faoliyat kishisiga tushadigan jismoniy va ruhiy zuriqishgagina bog'liq bo'lmasdan, ofitserning harbiy xizmatchilar bilan, shuningdek, texnika hamda qurollar bilan bir vaqtda faoliyat yuritishi bilan belgilanadi.

Psixologiya nuqtai nazaridan faoliyat bu turli vositalardan foydalanish orqali mavjud ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan xatti-harakatlar tizimidan iborat. Harbiy faoliyat amalga oshirish vositalari (harbiy texnika, o'q otish

qurollari...)ning hamda uning ishtirokchilari (harbiy xizmatchilar) amal qiladigan huquqiy me'yorlar (harbiy nizomlar, komandir va boshliqlarning buyruqlari)ning o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Har bir inson uzining ichki olamiga, psixologiya tushunchasi bilan aytganda individual psixologik xususiyatlariga ega. Ofitser ular bilan ishlaganda ushbu xususiyatlarni o'rganishi hamda o'z faoliyatida ularga tayanishi lozim, bundan tashqari, harbiy jamoa ham o'zining ijtimoiy-psixologik tabiatiga va tarkibiga ega bo'lib, ular ham o'ziga xos konuniyatlarga asoslanib rivojlanadi. Fanimizda jangovar faoliyat, shaxsiy tarkibni jangovar tayyorgarlik jarayonida psixologik chiniqtirish kabi bir qator harbiy psixologiya nuqtai nazaridan muhim bo'lgan muammolar tahliliga katta o'rin berilgan. Harbiy psixologiya fanining mazmuni haqida gapirishdan oldin umuman «psixologiya» tushunchasining mohiyati, ya'ni uning nimani «anglatishi» to'g'risida to'xtalib o'tsak. «Psixologiya» so'zi yunoncha bo'lib, «psixos» - ruh, jon; «logiya» - ta'limot degan ma'noni bildiradi. Hozirgi vaqtda Psixologiya juda keng tarmoqli fanlardan biriga aylangan, Harbiy Psixologiya ushbu fan tarmoqlaridan biri bo'lib, o'zining o'rganish ob'ekti - muammolari, usullari va qonuniyatlariga ega.

Harbiy psixologiya harbiy xizmatchi va harbiy jamoalar ichki olami, ruhiy rivojlanish qonuniyatlari haqidagi fan bo'lib, ofitser faoliyati bilan bevosita bog'liq. Shuni aytib o'tish kerakki, harbiy psixologiya nazariyadan ko'ra amaliyotga yaqinroq, ya'ni harbiy xizmatchi o'z faoliyatida tuqnash keladigan muammolarni taxlil qilishga va hal etishga yo'naltirilgan. Shaxsiy tarkibni o'qitish va tarbiyalash ofitser faoliyatining asosini tashkil etadi. O'qitish va tarbiyalash jarayonlari esa psixologik bilimlarga asoslanadi. Keling, yaxshisi buning nima ekanligiga e'tiborni qarataylik. Shunda yuqorida aytilgan fikrni tushunish oson bo'ladi. Ta'lim yoki o'qitish shunday jarayonki, bunda ta'lim oluvchilarda ma'lum bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi yoki rivojlantiriladi. Harbiy xizmatchilarda ularning faoliyatlarini yaxshilashga xizmat qiluvchi fazilatlarni tarbiyalash, rivojlantirish tarbiya jarayonining asosiy maqsadi hisoblanadi. Ofitserlik faoliyatini psixologik jihatdan samarali tashkil qilish uchun bir qator talablarga javob berish kerak. Bu talablar harbiy jamoalarning ichki qonuni bo'lgan umumharbiy nizomlarda o'z ifodasini topgan. Unga ko'ra har bir komandir (ofitser) o'z qo'lostidagi harbiy xizmatchilarning individual-psixologik xususiyatlarini, shuningdek, harbiy jamoada kechadigan ijtimoiy-psixologik hodisalarni bilishi va ularni boshqara olishi lozim.

Inson psixikasi miya faoliyati natijasidan iborat. Psixika inson xulq-atvori va faoliyatining asosi bo‘lib xizmat qiladi. Tashqi dunyoni inson ongida aks ettirish psixikaning mohiyatini tashkil etadi. Masalan, jang paytida psixika vositasida harbiy holatni to‘g‘ri baholash juda katta ahamiyatga ega. Psixologik aks ettirish natijasida inson ongida ob‘ektiv dunyoning sub‘ektiv obrazlari yaratiladi. Inson ruhiyati biosotsiologik xususiyatga, tabiatga ega: inson ruhiyatining ma‘lum bir belgilari biologik-irsiy yo‘l bilan ota-onalaridan o‘tadi, qolgan xususiyatlar esa ijtimoiy muhit shart-sharoitlari ta‘siri ostida hayot faoliyati mobaynida qaror topadi. Harbiy xizmatchilar man‘naviy-ruhiy dunyosiga harbiy xizmat, jangovar vaziyat katta ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham harbiy xizmatga chaqirilgan yosh yigitlar qisqa vaqt - 12 oy ichida chinakam erlarday faoliyat yurita boshlaydilar.

Harbiy psixologiya fan sifatida o‘z oldiga ma‘lum maqsadlarni qo‘yadi.

Ular qo‘yadilar:

- shaxsiy tarkibning jangovar, ma‘naviy-ma‘rifiy tayyorgarligi sifati hamda samaradorligini oshirishning psixologik shart-sharoitlarini o‘rganish;
- harbiy jamoalardagi ijtimoiy-psixologik muammolarni o‘rganish;
- harbiy intizomni psixologik tahlil qilish, jamoani uyushtirish va intizomni mustahkamlash yo‘llarini axtarish;
- jang va harbiy xizmat sharoitlari uchun boshqaruvning psixologik asoslarini ishlab chiqish;
- o‘qitish va tarbiyalashning uslub hamda shakllarini psixologik jihatdan asoslash, ularni takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish va h.k. Psixologik nuqtai nazardan bunday jazolar deyarli hech qanday tarbiyaviy ahamiyat kasb etmaydi. Sutkalik naryadga yoki jangovar navbatchilikni o‘tashga tushish jazo emas, harbiy xizmatchiga ko‘rsatilgan katta ishonch sifatida qaralishi, uni qo‘yilgan vazifani bajarishga ishonchli munosabatda bo‘lishiga berilgan bahodek qaralishi lozim. Jangovar navbatchilik yoki naryadni o‘tashning o‘zi harbiy xizmatchi uchun yuqori ruhiy yuklamani keltirib chiqarib, belgilangan o‘quv-jangovar vazifalarni bajarishga sitqidildan munosabatda bo‘lishni taqozo etadi. Jazolangan harbiy xizmatchidan ushbu vazifalarni sifatli bajarishini kutish noto‘g‘ridir. Komandir (boshliq) vazifa olgan harbiy xizmatchi yotoqxonada (xizmat joyida) vaqt o‘tkazish bilan emas, aynan ish bilan band ekanligiga ishonch xosil qilishi kerak.

Ruhiiy taranglik va zo‘riqishning navbatdagi sabablaridan biri bu harbiy xizmatchilarning yaqin qarindoshlaridan uzoqlikda bo‘lishi, muhim oilaviy tadbirlarda qatnashish imkoniyatining yo‘qligi (tug‘ilgan kunlar, to‘y-maraka, ta‘zilar va h.k) sanaladi. Albatta, imkon qadar harbiy xizmatchilarga oilaviy sharoit bilan ta‘til taqdim etish kerak. Afsuski, har doim ham buning imkoniyati bo‘lavvermaydi. Komandirning har bir rad javobi asoslangan bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. A.S.Abdugodirov , G'.Ahmedov Harbiy xizmat axloqi. O'quv Qo'llanma Sharq nashriyoti, Toshkent 2007 y.
2. A.Beknazarov, F.Akramova, H.Quvondiqov «Psixodiagnostika» o'quv qo'llanma, O'R MV nashriyoti, Toshkent 2018 y.
3. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. ostida. Ed. V.V. Davydov. - M .: Pedagogika, 1991 .-- 480-yillar.
4. Glasser V. Yo'qotuvchilarsiz maktab. 17-18s.
5. Jalilov Nodirjon Azamatovich. (2021). DEVELOP THE QUALITIES OF PROFESSIONAL CREATIVITY. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 1080–1083. Retrieved from <https://giirj.com/index.php/giirj/article/view/867>
6. Nodirjon Azamatovich Jalilov, & Umidjon Fazilov. (2022). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF DEVELOPING CREATIVE QUALITIES OF STUDENTS OF MILITARY EDUCATION FACULTIES. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 7, 37–40. Retrieved from <http://ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/201>
7. Ўқитувчи Н.А.Жалилов. (2022). HARBIY TA'LIM FAKULTETLARI TALABALARINING KASBIY KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY – PEDAGOGIK ZARURIYATI. Conference Zone, 58–60. Retrieved from <http://conferencezone.org/index.php/cz/article/view/626>
8. Jalilov Nodirjon Azamatovich. (2022). CREATIVITY AS AN IMPORTANT PEDAGOGICAL FACTOR FOR STUDENTS OF MILITARY EDUCATION. Conference Zone, 280–282. Retrieved from <http://www.conferencezone.org/index.php/cz/article/view/582>

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Bilbao, Spain on November 10th, 2022.

www.conferencezone.org

9.АЮ Сотволдиев, ИС Аъзамов, НМ Кобилов (2020) Некоторые вопросы взаимной интеграции принципов модульной технологии обучения и дидактических принципов военного образования Проблемы современной науки и образования 4-2

9.QN Mingboevich (2022) Xorijiy ilg'or pedagogik texnologiyalar va ularning talabalar bilimini oshirishdagi ahamiyati Conference Zone 42-44

10.KN Mingboyevich (2021) Differences between family and state education in patriotic education of young people and principles of ensuring their membership Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences 3, 26-28

11.KN Mingboyevich (2021) Implementation of New Innovative Technologies in the Classes of the Primary Training Process (Case Technology) European Scholar Journal 13-15

12. Jalilov N. A. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik samaradorligini oshirishda modulli texnologiyalardan foydalanish Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti Ilmiy Axborotlari Ilmiy - Nazariy Jurnal 2021 4 – son 170-174 б.

13. Жалилов Н.А. Педагогика соҳасида талабаларнинг креативлик сифатларини ривожлантириш Хоразм маъмун академияси ахборотномаси 2021 1-son 385-389 б.